

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

NASRIDDINOVA NOZIMA XAYRULLAYEVNA

SURXONDARYODA TEATR VA MUSIQA SAN'ATI TARIXI
(XX asrning 20-yillaridan XXI asr boshlarigacha)

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Nasriddinova Nozima Xayrullaevna

Surxondaryoda teatr va musiqa san'ati tarixi (XX asrning 20-yillaridan XXI asr boshlarigacha)..... 5

Насриддинова Нозима Хайруллаевна

История театрального и музыкального искусства Сурхандарьинской области (с 20-х годов XX века до начала XXI века)..... 25

Nasriddinova Nozima Khayrullaevna

History of theater and music arts in Surkhandarya (from the 20th of the 20th century to the beginning of the 21st century)..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

NASRIDDINOVA NOZIMA XAYRULLAYEVNA

SURXONDARYODA TEATR VA MUSIQA SAN'ATI TARIXI
(XX asrning 20-yillaridan XXI asr boshlarigacha)

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Tar865 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda “ZiyoNET” axborot-ta’lim portal (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qobulov Eshbolta Otamurodovich

tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ergasheva Yulduz Alimovna

tarix fanlari doktori, professor

Xushvaqov Nabi Olimovich

tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2021. Tar.70.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “_____” _____ kuni tarqatildi (2024-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

B.J. Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d,
professor

N.N. Rajabova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, t.f.n.,
dotsent

Yu.A. Ergasheva

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d.,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globallashuv sharoitida xalqlarning madaniy darajasini belgilashda, uning jamiyat va tarixiy davrga xos ijtimoiy munosabat va kechinmalarini aks ettirishda teatr va musiqa san'ati asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan davlatlararo integratsiya jarayonlarida teatr va musiqa san'ati madaniy diplomatiya sifatida qaralmoqda. Teatr va musiqa san'ati dunyo xalqlarining milliy an'analarini asrash va uni yanada rivojlantirish, targ'ib qilish, moddiy va nomoddiy madaniy merosni, tarixiy xotirani saqlab qolish va uni kelajak avlodlarga yetkazishda madaniy integratsiya vazifasini o'tagan holda uning dolzarbligi tobora oshmoqda.

Teatr va musiqa san'ati insonda yaratuvchilik, bunyodkorlik, ijodkorlik tuyg'ularining yuksalishiga, hayotdan estetik zavq olishiga xizmat qiladi. Shu bois dunyoning barcha mamlakatlarida teatr va musiqa san'ati millatning ma'naviy qiyofasini, qadr-qimmatini belgilovchi eng muhim omil sifatida sohadagi tadqiqotlarning obyektiga aylangan. Jahonning turli ixtisoslashgan tashkilot va ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan teatr va san'atning tarixiy ildizlarini, jumladan XX asrning 20-yillarida sohaning rivoji va uning milliy madaniyat targ'ibot-tashviqot vositasiga aylanishi bilan bog'liq jarayonlarni o'rganishga e'tibor kuchaydi.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ko'plab islohotlar amalga oshirilib, bu boradagi ishlar, ayniqsa, so'nggi yillarda tubdan takomillashtirilib islohotlar sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqilmoqda. Xususan, aholiga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, mamlakatning barcha hududlarida teatr va boshqa ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasidagi iste'dodli ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, o'zbek an'anaviy musiqa san'atini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Zero, "... xalqning ko'nglini ko'tarish – san'at ahlining muqaddas burchidir. Yoshi ulug' insonlar yaxshi biladi, ilgari teatrlar chekka qishloqlargacha gastrolga chiqib, tomosha ko'rsatardi. Bu uchrasuvlar haqiqiy bayramga aylanib ketardi. O'sha an'analarni davom ettirish zarurligiga, xalqimiz o'rtasida bunga ehtiyoj katta ekaniga joylarda aholi vakillari bilan muloqot paytida ko'p marta ishonch hosil qilmoqdamiz¹, deya davlat rahbari tomonidan ta'kidlanganligi ham inson va jamiyat hayotida, xalqning ma'naviy dunyosini, ongu tafakkurini yuksaltirishda teatr va musiqa san'atining o'rni va ahamiyati nihoyatda muhim ekanligini anglatadi. Shu jihatdan ham, shonli tarixga, ijodiy maktablarga ega bo'lgan o'zbek teatr san'ati o'zining boy an'ana va qadriyatlarini saqlab, zamon bilan hamnafas bo'lib, izchil rivojlanib kelmoqda. Bu borada sobiq sovet davrida unutilgan boy madaniy merosni, milliy teatr va musiqa san'ati an'analarini qayta tiklash, hududlardagi o'ziga xos madaniyat, xususan, Surxondaryoda oilaviy ansambllar, folklor-etnografik ansambllar tashkil etilib, dostonchilik, xalq marosimlari va udumlarining tiklanishi masalalarini ilmiy tadqiq qilish zaruratga aylanmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 278-279.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son farmoni, 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3391-son, 2019-yil 14-maydagi “Baxshichilik san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4320-son qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 28-oktabrdagi “O‘zbekistonda teatr va musiqa san‘atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ–415-son qarori hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustivor yo‘nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustivor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mazkur mavzuga oid tadqiqotlarni uch guruhga bo‘lish mumkin: sovet davri nashrlari, mustaqillik yillaridagi nashrlar, xorijiy nashrlar.

Birinchi guruhga oid adabiyotlarni sovet hokimiyati davrida yaratilgan tadqiqotlar tashkil etib, ushbu tadqiqotlarda teatr san‘atining shakllanishi va rivojlanishiga oid², musiqa san‘ati va madaniy muassasalarning rivojiga oid³ hamda xalq ijodiyoti va baxshichilik faoliyatiga oid⁴ masalalar yoritib berilgan bo‘lib, ularda asosan sovetlar davridagi hukmron mafkuraning ta‘siri tavsiflangan.

Ikkinchi guruh adabiyotlarini mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar tashkil etadi. Xususan, A. Ismoilov, B. Sangirov, B. Ungboyeva, F. Abduvohidov tadqiqotlarida O‘zbekistonda teatr san‘ati rivojining o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan bo‘lsa⁵, B. Irzayev, M. Sohibova, M. To‘rayeva, B. Raximov, E. Tilayev

² Кодиров М. Ўзбек театр анъаналари. – Тошкент: Фафур Фулом, 1976; Кодиров М. Халқ кўғирчоқ театри. – Тошкент, 1972; Раҳмонов М. Ўзбек театри тарихи. – Тошкент: Фан, 1968; Львов Н. Казахский драматический театр: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора искусствоведения. – М.: Гос. институт театрального искусства им. А. Луначарского, 1965; Абидов Т. Театр масхарабозов Хорезма: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Ташкент: Институт Искусствования, 1967; Дяченко В. Русский драматический театр в Туркестанском крае: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Ташкент: Институт Искусствования, 1963; Баяндиёв Т. Каракалпакский государственный театр им. К.С. Станиславского (1934-1957). Очерк истории: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Ташкент: Институт Искусствования, 1965.

³ Раҳмонов Н., Умаралиев А. Совет Ўзбекистони маданияти тарихи очерклари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984; Қосимова О. Ўзбекистонда кутубхоначилик иши тарихи. – Тошкент, 1977; Олтинов М. Қайта қуриш ва қишлоқ маданияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1990.

⁴ Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент: Фан, 1979; Зарифов Х.Т. К изучению узбекского народного эпоса // Вопросы изучения эпоса народов. – М., 1958; Раззоқов Х., Мирзаев Т., Собиров О., Имомов К. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент, 1980.

⁵ Абдувоҳидов Ф. Сурхондарё вилояти мусикали драма театри кеча ва бугун. – Тошкент: Ворис-нашриёти МЧЖ, 2017; Унгбоева Б.Ў. 1920-1956 йилларда кино ва театр санъати тарихи: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети, 2018; Исмоилов А. Замонавий ўзбек драма театри режиссураси тараққиётининг асосий йўналишлари (1991-2016 йй.). – Тошкент: Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, 2019; Сангиров Б. Ўзбек театрида этномаданий анъаналар талқини: Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент: ЎзФА Санъатшунослик институти, 2019.

va S. Murtozova tadqiqotlarida O‘zbekiston madaniy-ma’rifiy hayoti, xususan, musiqa madaniyati bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilib, kerakli xulosalar bayon etilgan⁶. Mavzu xalq ijodiyoti va baxshichilik san’ati bo‘yicha S. Yo‘ldosheva, M. Jo‘rayev, Q. Panjiyev tadqiqotlarida⁷ yoritib o‘tilgan.

Mustaqillik yillarida Surxondaryo vohasi tarixiga oid o‘nlab monografiyalar chop etilib, ularda viloyat madaniy hayoti, jumladan, teatr va musiqa san’atiga oid ayrim ma’lumotlar yoritib o‘tilgan⁸.

Uchinchi guruhga kiruvchi xorijiy adabiyotlar, asosan sovet davlatidagi madaniy mavzularda tadqiqot ishlarini olib borgan xorijlik olimlar asarlaridir⁹.

Mavzuning tarixshunosligiga oid manba, adabiyot hamda materiallarning tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, Surxondaryoda teatr va musiqa san’ati tarixiy jihatdan tadqiqot obyekt sifatida maxsus tadqiq etilmagan bo‘lib, ushbu mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish bugungi kunda dolzarb sanaladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan ATD-1 “O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: munosabatlar va qarashlar” (2015–2021-yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Surxondaryo vohasida teatr va musiqa san’atining rivojlanishi, milliy musiqiy merosning shakllanishi va madaniy muassasalar faoliyati tarixini ochib berishdan iborat.

⁶ Тўраева М.Х. Ўзбекистонда маданий ҳаёт: муаммолар ва оқибатлар (1920-1940 йй.) (Жанубий Ўзбекистон мисолида.): Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2001. – 24 б.; Соҳибова М.Т. Ўзбекистонда маданий ҳаёт: тажриба ва муаммолар (жанубий вилоятлар мисолида (1946-1985 йй.): Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2008; Тилаев Э. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётидаги ўзгаришлар (жанубий вилоятлар мисолида): Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2010. – 24 б.; Ирзаев Б. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда musiqa маданиятининг ривожланиши: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2018; Муртозова С. XIX асрнинг охири XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистон musiqa маданиятидаги трансформация жараёнлари: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2018. – 24 б.; Раҳимов Б. Ўзбекистоннинг мустақиллик йилларида ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти (Сурхондарё вилояти мисолида 1991-2018 йй.). – Тошкент: Янги нашр, 2019.

⁷ Йўлдошева С. Халқ урф-одатлар ва анъаналари. – Тошкент: Ижод дунёси, 2003; Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. – Тошкент: Фан, 2009; Панжиев Қ. Сурхондарё вилояти ўзбек халқ кўшиқчилиги ижодиёти: Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2010. – 24 б.

⁸ Турсунов С., Қобулов Э., Муртазов Б., Пардаев Т. Сурхондарё тарих кўзгусида. – Тошкент: Шарқ, 2001; Турсунов С., Қобулов Э., Муртазов Б., Пардаев Т. Сурхондарё тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2004; Турсунов С. Ўзбекистон тарихи ва маданияти – Сурхондарё этнографияси. – Тошкент: А. Навоий миллий кутубхонаси, 2006; Турсунов С., Тўхтаев А. Жаркўрғон. – Тошкент: Фан, 2008; Турсунов С. Денов. – Тошкент: Фан, 2009; Турсунов С., Рашидов Қ. Бойсун. – Тошкент: Академнашр, 2011; Турсунов С., Турсунов А., Тоғаева М. Шеробод тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Янги нашр, 2014; Турсунов С., Эшбоев Қ. Шўрчи тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Янги нашр, 2014; Pardayev T. Janubiy O‘zbekistonda 1945-1991-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. – Toshkent, 2019.

⁹ Lewis R.A., Rowland R.H., Clem R.S. Modernization Population Change and Nationality in Soviyet Central Asia. “Canadian Slavonic Papers”. – V. VXII. – № 2, 3, 1975. – 298 p.; Dunn S., Dunn E. Soviyet Regime and native culture in Central Asia and Kazakhstan, the major peoples. – Current anthropology. – Chikago, 1967, v.8. – 158 p.; Carrere D., Encansse H Lyempire eclate: La revolte’ des national en U.R.S.S. – Parij Flammaruon, 1978. – 324 p.

Tadqiqotning vazifalari:

XX asrning boshlarida Surxon vohasida madaniy hayot, ilk xalq truppalarning tashkil etilishi va bu boradagi mavjud muammolarni aniqlash;

Mannon Uyg‘ur nomidagi Surxondaryo viloyat musiqali drama teatrining tashkil etilishi va uning voha madaniy hayotida tutgan o‘rnini o‘rganish;

viloyat musiqali drama teatrining Ikkinchi jahon urushidan keyingi faoliyatidagi o‘zgarishlar va muammolarni tahlil qilish;

1946–1990-yillarda faoliyat ko‘rsatgan Surxondaryo viloyatidagi madaniy muassasalarning viloyat madaniy hayotidagi tutgan o‘rnini yoritib berish;

viloyat musiqali drama teatrining mustaqillik yillaridagi faoliyatining muammo va yutuqlarini ochib berish;

Boysun madaniy muhitining respublika madaniy-ma‘rifiy sohasida tutgan o‘rnini ochib berish;

mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyati madaniy hayotining yutuq va muammolarini yoritishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida Surxondaryo viloyati musiqali drama teatri faoliyati va viloyatning musiqa san‘ati tarixini o‘rganish belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Surxon vohasi teatr va musiqa san‘ati sohasining rivoji va mavjud muammolari, musiqa ta‘limi, musiqa ilmi va voha san‘atkorlarining xalqaro madaniy jarayonlarga ishtiroki masalalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, qiyosiy tahlil, muammoviy-xronologik, tizimlilik, fanlararo yondashuv usullaridan, shuningdek, “og‘zaki tarix”, “ekspert-intervyu” metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XX asrning 20–30-yillarida Surxon vohasining asosan Boysun va Denov hududlarida havaskor masxarabozlar va qo‘g‘irchoqbozlar truppalari faoliyat ko‘rsatganligi va ulardan professional aktyorlar yetishib chiqqanligi yangi ma‘lumotlar asosida dalillangan;

Ikkinchi jahon urushi yillarida Ukrainaning Xarkov operetta teatrining Termiz shahrida o‘z ijodiy faoliyatini olib borishi barobarida Surxondaryo viloyat teatri bilan ijodkorlarning sahna nutqi ko‘nikmalari, tana harakatlari, mimika, artikulyatsiya, musiqani eshitish va ritmni his qilish, badiiy va estetik didini rivojlantirish kabi yo‘nalishlardagi ijodiy hamkorligi teatr aktyorlarining ijodiy o‘rishida muhim o‘rin tutganligi asoslangan;

1960–1980-yillarda Surxondaryo viloyati musiqali drama teatri yetarlicha professional salohiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, voha aholisining asosiy qismi xo‘jalik ishlarida bandligi tufayli yetarlicha tomoshabinlarni jalb eta olmaganligi sababli asosiy faoliyatini teatrdan tashqarida – qishloq hududlarida ko‘chma spektakl va konsertlar namoyish etishga majbur bo‘lishi, teatrning moddiy-texnik bazasiga e‘tiborning susayishiga olib kelganligi dalillangan;

Surxon vohasida folklor-etnografik musiqa san‘ati o‘z uslubiga ega bo‘lib, necha ming yillardan beri saqlanib kelayotganligi tojik va o‘zbek xalqlari madaniyati uyg‘unligi bilan ajralib turuvchi hududlardan biri ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Surxondaryo viloyatining sovet davri va mustaqillik yillaridagi musiqa va san'at tarixiga oid ilmiy xulosalardan XX asr davomida va XXI asrning boshlarida vohadagi madaniy hayot, shuningdek, Mannon Uyg'ur nomidagi viloyat musiqali drama teatrining tashkil etilishi va rivojlanishi, Boysun madaniy muhitining respublika madaniy hayotidagi o'rnini ko'rsatib berishga xizmat qiladigan informatsion baza ishlab chiqilgan;

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlar, an'analar va milliy marosimlar tiklanishi, o'zbek an'anaviy musiqa san'ati rivojiga e'tibor kuchayishi, oilaviy, folklor-etnografik ansambllar tashkil etilib, dostonchilik, xalq marosimlari va udumlarining tiklanishiga oid ilmiy xulosalardan Surxondaryo viloyatining madaniy-ma'rifiy sohasiga oid muammolarni o'rganishga qaratilgan davlat va mahalliy dasturlarni ishlab chiqish hamda o'quv jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan jihatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya O'zbekiston milliy arxivi¹⁰, Surxondaryo viloyati davlat arxivi¹¹, shuningdek, statistik ma'lumotlar¹² hamda davriy matbuot materiallariga¹³ asoslanganligi, tadqiqot ma'lumotlarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijasida chiqarilgan xulosalardan folklorshunoslik va etnografiya fanlarining xalqning madaniy hayoti asosida o'rganilgan turli qo'shiqlar, urf-odatlar, marosim va ularda kuylangan turli aytimlarga oid qarashlarni boyitishga teatrshunoslik va musiqashunoslik yo'nalishlarida ma'lumotlarni kengaytiradi va to'ldiradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqotda umumlashtirilgan ma'lumotlardan ta'lim muassasalarida Vatan tarixi, madaniyatshunoslik, Vatan tuyg'usi kabi fanlarning tegishli mavzularini o'qitishda, dissertatsiyada ilgari surilgan g'oya, ilmiy fikr-mulohazalar, amaliy taklif va tavsiyalardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini tayyorlashda, shuningdek, voha madaniy hayotiga oid seminar-treninglar o'tkazishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Surxondaryo viloyatida teatr va musiqa san'ati tarixiga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

XX asrning 20–30-yillarida Surxon vohasining, asosan, Boysun va Denov hududlarida havaskor masxarabozlar va qo'g'irchoqbozlar truppalari faoliyat ko'rsatganligi va ulardan professional aktyorlar yetishib chiqqanligi haqidagi yangi ilmiy nazariyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining chora-tadbirlar dasturining ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar

¹⁰ O'zbekiston milliy arxivi: P-86-fond, P-90, R-2487, R-4602-fond.

¹¹ Surxondaryo viloyati davlat arxivi: 33-fond, 45-fond, 89-fond, 313-fond, 361-fond, 454-fond, 1216-fond.

¹² Советский Узбекистан за 40 лет. Статистический сборник. – Ташкент: Узбекистан, 1964.

¹³ Qizil O'zbekiston, Pravda Vostoka, Lenin bayrogi, Ўзбекистон адабиёти ва санъати, Сурхон тонги, Жануб вақти, Халқ сўзи, Қишлоқ ҳақиқати gazetalari.

institutining 2023-yil 7-avgustdagi 02-22/753-son ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar mamlakatimizda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Ukrainaning Xarkov operetta teatrining Termiz shahrida o'z ijodiy faoliyatini olib borishi barobarida Surxondaryo viloyat teatri bilan ijodkorlarning sahna nutqi ko'nikmalari, tana harakatlari, mimika, artikulyatsiya, musiqani eshitish va ritmni his qilish, badiiy va estetik didini rivojlantirish kabi yo'nalishlardagi ijodiy hamkorligi teatr aktyorlarining ijodiy o'sishida muhim o'rin tutganligi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining chora-tadbirlar dasturining ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 7-avgustdagi 02-22/753-son ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar mamlakatimizda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirishga xizmat qilgan.

1960–1980-yillarda Surxondaryo viloyati musiqali drama teatri yetarlicha professional salohiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, voha aholisining asosiy qismi xo'jalik ishlarida bandligi tufayli yetarlicha tomoshabinlarni jalb eta olmaganligi sababli asosiy faoliyatini teatrdan tashqarida – qishloq hududlarida ko'chma spektakl va konsertlar namoyish etishga majbur bo'lishi, teatrning moddiy-texnik bazasiga e'tiborning susayishiga olib kelganligi “O'zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqdimot” ko'rsatuvi ssenariysini yozishda foydalanilgan (O'zMTRKning 2023-yil 29-martdagi 02-06-466-son ma'lumotnomasi). Natijada, teletomoshibinlarda urushdan keying yillardan 90-yillargacha bo'lgan davr haqida ma'lumot berishga xizmat qilgan.

Surxon vohasida folklor-etnografik musiqa san'ati o'z uslubiga ega bo'lib, necha ming yillardan beri saqlanib kelayotganligi tojik va o'zbek xalqlari madaniyati uyg'unligi bilan ajralib turuvchi hududlardan biri ekanligi haqidagi ma'lumotlardan “Taqdimot” ko'rsatuvi ssenariysini yozishda foydalanilgan (O'zMTRKning 2023-yil 29-martdagi 02-06-466-son ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuvning ilmiy saviyasi va axloqiy-estetik tarbiyaviy ahamiyatini oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 4 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, shu jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xalqaro konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 11 ta (ulardan 4 tasi respublika va 7 tasi xorij jurnallarida) maqola, 4 ta (2 ta respublika va 2 ta xalqaro) ilmiy-amaliy anjumanlarda tezislar e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, ishning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti va usullari belgilab olingan. Ishning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari asoslab berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar berib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Surxon vohasida madaniy hayot”** deb nomlanib, unda XX asrning 20–30-yillarda Surxon vohasida madaniy hayot (ilk xalq truppalari) va Mannon Uyg‘ur nomidagi musiqali drama teatrining tashkil etilishi bo‘yicha tahlil qilinadi.

Moziyga nazar solar ekanmiz, musiqa va teatr san‘ati uzoq tarixga ega bo‘lganligini, bevosita yozma va arxeologik ashyoviy manbalar (haykallar, mo‘jaz san‘at namunalari) isbot etadi¹⁴. Eramizdan avvalgi III ming yillik oxiri – II ming yillik boshlarida yozma manbalarda baxshichilikning ildizlari haqida ma‘lumotlar yo‘q, ammo etnografik manbalarda baxshilarning fenomenal yodlash qobiliyati va ijro san‘ati Zardushtiylarning gimnlarini saqlanib qolishiga katta xizmat qilgan¹⁵.

Bu jarayon tarixning keyingi bosqichlarida davom etganini kuzatish mumkin. Xolchayon saroy majmuasidagi ayvon va yo‘lakni hukmdorlar, ma‘budlar, jangchilar, otliv suvoriylar qatori musiqa asboblari ijro etayotgan ayol va masxaraboz haykallari ham bezab turgan bo‘lsa¹⁶, Ayritom yodgorligidan topilgan oqtoşga ishlangan noyob haykallar majmui **“Ayritom piromonlari”**¹⁷. Zartepa yodgorligidan topilgan terrakota haykalchalari orasida musiqachilar o‘zining rang-barangligi bilan ajralib turgani holda puflab chalinadigan cholg‘u asbobi yoki musiqa tarixida **“Pan fleytasi”** alohida ahamiyatga molik¹⁸.

Bunday holat davom etganligi, XI asrning taniqli tarixchisi Abul-Fazl Bayhaqiyning **“Mas‘ud tarixi”** yoki **“Tarixi Mas‘udiy”** (1030–1041-yillar) asarida G‘aznaviy Sulton Mas‘udni Termizda kutib olish jarayonida Termiz tomonidan hofizlar, mutriblar, raqqosalar, doirachilar jami bo‘lib 300 nafar shunday xirgoyi qildilar va tomosha ko‘rsatdilarki, buni hech qayerda ko‘rmaganligini Abul Fazl Bayhaqiy ta‘kidlab yozgan¹⁹.

Xullas, tarixning barcha davrlarida vohada musiqa va teatr san‘ati ildizlarini ko‘rish mumkin. Sovet hukumati o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma‘rifiy hukmronligini shakllantirishda g‘oyaviy ta‘sir masalalariga ham alohida urg‘u berdi. Aynan aholini milliy qadriyatlardan uzoqlashtirish, tarixiy merosdan bebahra qilish, kommunistik mafkura tamoyillariga xizmat qiladigan ijtimoiy-siyosiy

¹⁴ Аннаев Т., Аннаев Ж., Худойбердиев У. Қадимий Сурхон воҳаси муסיқа санъати тарихидан. – Термиз, 2019. – Б. 6.

¹⁵ Крюкова В. Авестийский жрец кодекс «видевдат», историко-этнографический реалии // «Авесто» ва унинг инсоният тараққиётидаги ўрни. – Тошкент-Урганч: Фан, 2001. – Б. 120-124.

¹⁶ Пугаченкова Г.А. Скульптура Халчаёна. – М.: Искусство, 1971. – Рис. 30; Рис. 33.

¹⁷ Аннаев Т., Аннаев Ж., Худойбердиев У. Қадимий Сурхон воҳаси муסיқа санъати тарихидан. – Б. 15.

¹⁸ Завьялов В.А. Позднекушанская антропоморфная терракота Зар-тепе// Краткие сообщения Института археологи. Выпуск 167., 1981. – С. 65-69.

¹⁹ Абул Фазл Бейхаки. История Масъуда 1030-1041. – Ташкент: Изд. АН Узбекской ССР. – С. 233.

muhitni yuzaga keltirishda klublar, “qizil choyxona”lar, truppalar kabi madaniy oqartuv muassasalaridan keng foydalanishga harakat qildi. Ushbu muassasalarda zo‘r berib sovet mafkurasi, sovet turmush tarzining afzalliklari, sinfiy kurash g‘oyalari tinimsiz targ‘ib etib borildi.

O‘zbekiston hududida birinchi klub muassasasi 1918-yil 7-may kuni Toshkent shahrida ochilgan. O‘zbekiston SSR hukumatining 1925-yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan II syezdida “Termiz shahrida hamda viloyatning tuman va qishloqlarida klublar, choyxonalar, aholi uchun ommaviy-siyosiy, madaniy-oqartuvni tashkil etish” yuzasidan qaror qabul qilindi²⁰. Ushbu qaror asosida shu yili Termiz shahrida 2 ta, Sherobodda 4 ta, Denovda 3 ta, Sariosiyoda 2 ta qizil choyxonalar ish boshlagan bo‘lsa, 1928-yilga kelib Surxondaryoda 18 ta qizil choyxona, 13 ta qizil klublar faoliyat olib borgan²¹.

1920-1930-yillarda Surxon vohasida aholining madaniy-ma‘rifiy hayotida kutubxonalar muhim o‘rin tutgan. Bu davrda O‘zbekistondagi mavjud kutubxonalar o‘z faoliyatlarini sovet tuzumi talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshirdi. Kutubxonalarda tarbiyaviy ishlarni yaxshilash va kengaytirish maqsadida turli mavzularda kitob ko‘rgazmalari, ma‘ruzalar, munozaralar, konferensiya va kechalar uyushtirildi²². Shuni qayd etish lozimki, kutubxonalar faoliyatini birdaniga yaxshilash imkoni yo‘q edi. Masalan, 1936-yilda Termiz shahri kutubxonasi ilgari vino sotiladigan do‘konga joylashtirilgan bo‘lib, aholi orasida madaniy-oqartuv ishlarini olib borishga qodir emasligi o‘sha davrda tanqid ostiga olingan edi²³.

1930-yillarning oxirida kolxoz va sovxozlarda yangi kutubxonalar tashkil etish, mavjud kutubxonalar tarmog‘ini kengaytirish va kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish ishlari birmuncha jonlandi. Chunonchi, Surxondaryo okrugidagi yirik kutubxonalarning kitob fondlari aholiga keng ravishda ochib qo‘yildi. Kutubxona ishlari yaxshilanishi hisobiga 1940-yilda okrug hududida 99 ta ommaviy kutubxona faoliyat yuritishiga erishildi²⁴. Lekin o‘zbek tilida yozilgan kitoblar, ayniqsa, o‘tmish ajdodlardan qolgan asarlarni ushbu kutubxonalardan topish mushkul edi. Bundan tashqari kadrlar yetishmasligi ham sohadagi asosiy muammolardan edi. 1939-yilda Boysun, Sariosiyo, Sho‘rchi tumani kutubxonalari xodimlarining birortasi ham maxsus ma‘lumotga ega emas edi²⁵.

Madaniy-oqartuv muassasalar tizimidagi muhim bir bo‘g‘in – klublar bo‘lib, ular o‘z faoliyatini barcha davlat va jamoa xo‘jaliklarida, shuningdek, shahar va tuman markazlarida amalga oshirdilar. 1927-yilda Surxondaryoda 14 ta klub, shulardan 10 tasi aholi, 2 ta harbiy va, shuningdek, Termiz shahrida kasaba uyushmasi va xotin-qizlar tashabbusi bilan tashkil etilgan 2 ta xotin-qizlar klubi mavjud bo‘lgan. Ularda har haftada ma‘ruzalar tashkil etilgan. Shuningdek, klubga tashrif buyuruvchi kishilarga turli gazeta va jurnallar o‘qib eshittirilgan²⁶.

²⁰ “Qizil O‘zbekiston” gazetasi, 1925-yil 13-dekabr.

²¹ Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 89-fond, 1-ro‘yxat, 155-ish, 99-varaq.

²² Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 89-fond, 4-ro‘yxat, 72-ish, 29-varaq.

²³ Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 45-fond, 1-ro‘yxat, 101-ish, 58-varaq.

²⁴ Советский Узбекистан за 40 лет. Статистический сборник. – Ташкент: Узбекистан, 1964. – С. 328.

²⁵ Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 45-fond, 1-ro‘yxat, 101-ish, 58-varaq.

²⁶ Культурное развитие Сурхандари за годы Советской власти. – Термез, 1967. – С. 22.

Targ‘ibot ishlarini kuchaytirish maqsadida keyingi yillarda madaniy-oqartuv muassasalari faoliyatini kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratilganligi natijasida, qisqa muddatda ularning soni oshib, 1928-yilda Surxondaryo okrugida 18 ta “qizil” choyxona, 13 ta “qizil” klublar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 1940-yilga kelib faoliyat ko‘rsatayotgan “qizil” choyxonalar soni 134 ta, “qizil” klublar soni 86 taga yetdi. “Qizil klub”larda, asosan, Marks, Engels, Lenin va Stalinning asarlari, sovet tuzumini ulug‘lovchi, asosan, rus tilidagi asarlar bilan ta‘minlangan edi²⁷. Shuningdek, klub muassasalarida tashkil etilgan “Yangicha turmush” to‘garaklarida yangicha turmush an‘analarini aholi orasida yoyish orqali, sovet hokimiyatida amalga oshirilgan “madaniy inqilob” siyosatining ijobiy tomonlarini ko‘rsatish, mahalliy xalqlarning urf-odatlarini, madaniy, ayniqsa, milliy jihatlarini yo‘q qilishni ilgari surgan edi.

Sovet hukumati 1932-yil 16-iyulda “Qishloqda ideologiya va madaniy-oqartuv ishlarini yaxshilash chora-tadbirlari haqida”gi qarori²⁸ asosida qishloq joylarda tashkil etilgan “dehqon uylari”da madaniy-oqartuv va ommaviy siyosiy ishlar avj oldirildi. Badiiy havaskorlik to‘garaklarini tuzish va ularning faoliyatini rivojlantirish “dehqon uylari”ning o‘ziga xos ish yuritish uslubiga aylandi. Bu kabi to‘garaklarda yuzlab kishilar o‘z qiziqishlari, iqtidorlariga qarab birlashtirildi. Natijada, O‘zbekistonda ham qishloq klublari, havaskor teatr truppalari va badiiy havaskorlik to‘garaklari tashkil etila boshladi. Surxondaryo okrugida ilk havaskorlik to‘garagi 1927-yilda Termiz shahrida tashkil etilgan “Ozod Sharq” to‘garagidir. To‘garakning 6 nafar a‘zosi bo‘lib, 1 nafari yahudiy, 3 nafari tatar, 2 nafari mahalliy millat vakillari edi. To‘garak repertuarida asosan yangi tuzumni targ‘ib qilish, Yevropa madaniyatini yoyish asosiy maqsad bo‘lgan kuy va qo‘shiqlar jamlangan edi²⁹. Ana shunday badiiy havaskorlik to‘garaklaridan yana biri Denov tumani Kirov nomli jamoa xo‘jaligidagi “Kommuna” badiiy havaskorlik to‘garagi bo‘ldi. Ushbu to‘garak a‘zolari asosan erkaklardan tuzilgan bo‘lib, ular xalq qo‘shiq va laparlarini zamon ruhiga moslab ijro etishdan iborat edi³⁰. Jarqo‘rg‘on tumanining “Mehnat-rohat” kolxozida tashkil etilgan “Mehnat” badiiy havaskorlik to‘garagi ham birinchilardan tashkil etilgan to‘garak hisoblanadi³¹.

Vohada faoliyat yuritgan ilk badiiy havaskorlik jamoalari orasida 1929-yilda Boysunda tashkil etilgan “Ko‘k ko‘ylakchilar” tashviqot badiiy havaskorlik teatri alohida o‘rin tutadi³². Bu teatrning asosini Usta Qurbon Davlatmamat o‘g‘li tomonidan shakllantirilgan ijodiy guruh tashkil etgan. Xalq orasida Usta Qurbon doiradast nomi bilan mashhur bo‘lgan shirali ovoz sohibi bo‘lgan usta Qurbon, tog‘asi Karim nog‘orachi, Doni mextar, jiyani Mulla Juma dutoriy Sharif o‘g‘li va boshqa san‘at ixlosmandlarini jamlab, to‘y va sayillarda xalqqa xizmat ko‘rsatgan truppalarni tashkil etish keng yoyilgan edi.

²⁷ Турсунов С., Қобулов Э., Муртозаев Б., Пардаев Т. Сурхондарё тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 313.

²⁸ Директивы КПСС и Советского правительства по идеологическом вопросам 1917–1957 гг. Сборник документов. В 4-х томах. – М.: Госполитиздат, 1957. Т-2. – С. 142-144.

²⁹ Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 313-fond, 1-ro‘uxat, 18-ish, 36-varaq.

³⁰ Правда Востока газетаси, 1934 йил 10 январь.

³¹ Колхоз ва совхозлар тарихи. VIII китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1973. – Б. 142-143.

³² Турсунов С., Рашидов Қ. Бойсун. – Тошкент: Академнашр, 2011. – Б. 327-328.

1928-yilda Termiz shahrida “Sinnaya bluza” nomli dramatik gruppа tashkil etilgan³³. Bu truppа asosan sovet mafkurasi bilan sug‘orilgan asarlarni sahnalashtirar va okrugda istiqomat qilayotgan rusiyzabon aholiga xizmat qilgan.

Surxon vohasining 1917–1941-yillardagi madaniy-ma’naviy hayoti tahlil etilganda, milliy san’atning ma’lum darajada rivojlanganligi ko‘zga tashlanadi. Kommunistik mafkura ta’siriga qaramay, vohada xalq og‘zaki ijodi, milliy folklor va san’at mahalliy xalq qalbida ijod namunasi sifatida yashab keldi. Jumladan, xalq baxshilari, xalq ichidan yetishib chiqqan shoirlar, ijodkor yozuvchilar, milliy musiqachilar, musiqa asboblarini sozlovchilar, badash, chanqovuz nolalari milliy madaniy jihatdan kamsitilgan xalqning orzu-niyatlarini, g‘am-tashvishlarini og‘ir zulm ta’sirida ham saqlab keldi.

XX asr 30-yillarida Surxondaryoda ham keng ekranli kinoteatrlar qurish ishlari boshlab yuborildi. Bunday kinoteatrlar qurilishi Denov, Termiz, Sherobod, Sho‘rchi, Jarqo‘rg‘on kabi tuman va shaharlarda amalga oshirildi. Termiz shahridagi kinoseanslar asosan zobitlar uyida hamda M. Gorkiy nomidagi istirohat bog‘ida tashkil qilindi. Bu bog‘da maxsus yozgi kinoteatr barpo etildi. Ammo shunga qaramay, aholiga kinoxizmat ko‘rsatish darajasi qoniqarli deb bo‘lmas edi. Bu sohada Surxondaryo respublikada eng oxirgi o‘rinda edi. Jumladan, 1940-yilda viloyat bo‘yicha 25 ta kinoqurilma mavjud edi. Vaholanki, aholi nufuzi bo‘yicha Surxondaryodan ancha kam bo‘lgan Xorazmda 28 ta, Qoraqalpog‘istonda 33 ta, Sirdaryoda 45 ta kinoqurilma ishlab turgan edi³⁴. Demak, bu sohada viloyat boshqalardan orqada bo‘lganini ko‘rish mumkin.

O‘zbekistondagi ilk radioeshittirish 1925-yil 22-iyunda boshlandi³⁵. 1927-yilda Surxondaryo okrugida radioni ishga tushirish uchun davlat byudjetidan 5200 so‘m mablag‘ ajratildi. Bu mablag‘ga Termiz, Sherobod, Denov tumanlarida radioqurilmalar o‘rnatildi³⁶. Vohada tashkil etilgan radiouzelda ish yuritishning asosiy mazmuni markscha-lenincha mafkurani targ‘ib etishga moslashtirilgan edi.

Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi boshqa sohalar qatori san’at va madaniyat sohasida tub o‘zgarishlarga olib keldi. Xususiyl hisoblangan jamoat va tomosha binolari, kutubxonalar, ular bilan bog‘liq mulk va jamoalar – teatr to‘dalari, musiqa, sozanda va xonanda uyushmalari, sirk va dorbozlik bilan shug‘ullanuvchi guruhlar hisobga olinib, davlat ixtiyoridagi idoralarga bo‘ysundirilib, davlat ko‘rsatmalariga binoan ish yuritadigan qilib qo‘yildi.

1930-yillarga kelib teatr san’atida “Sotsializmni ulug‘lash, kishilar ongiga markscha-lenincha dunyoqarashni singdirish, har qanday og‘machilikka qarshi kurash” asosiy mavzu qilib belgilandi. 1932-yilda O‘zbekiston SSR hukumatining “Adabiy-badiiy” tashkilotlarni qayta qurish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi³⁷. Ijodiy ishlarning barchasi ushbu qaror asosida amalga oshirilar edi. G‘oyaviy-mafkuraviy kurashni kuchaytirish, “Xalq dushmanlariga” qarshi qatag‘on siyosatini

³³ Турсунов С., Қобулов Э. ва бошқ. Сурхондарё тарихи. – Б. 317.

³⁴ Советский Узбекистан за 40 лет. Статистический сборник. – С. 330.

³⁵ Азимов М. Термиз тарихи. (Энг қадимги давридан XXI аср бошигача). – Насаф, 2001. – Б. 152.

³⁶ O‘zbekiston milliy arxivi, R-86-fond, 1-ro‘uxat, 4158-ish, 73-varaq.

³⁷ Унгбоева Б.Ў. 1920-1956 йилларда кино ва театр санъати тарихи: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация иши. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети, 2018. – Б. 27.

asoslash maqsadida madaniyat va san'atda "ijtimoiy buyurtma" tizimi shakllantirildi. Sovet davlati dastlabki davrlardan asosiy e'tiborni an'anaviy va umuminsoniy qadriyatlarga yo'g'rilgan milliy madaniyatdan tamomila farq qiluvchi "yangi madaniyat"ni shakllantirishga qaratdi.

1933-yilda Jarqo'rg'on tumanida Surxondaryo okrugi miqyosidagi dastlabki kolxoz-sovxozi teatri tashkil etildi. Ushbu teatrni tashkil etishda mahalliy millat vakili Qori Madaminovning xizmati katta bo'ldi³⁸. U okrugning ko'plab qishloq va ovullarini kezib, san'atga ishtiyoqmand havaskorlarni izlab topdi. Ushbu truppa dastlab xalq orasidagi chiqishlarda ashula va raqslar ijrosi bilan ishtirok etib keldi. Bir necha urinishlardan keyin kichik-kichik sahna epizodlari, ko'rinishlar sahnalashtirila bordi. Biroq, teatr jamoasi asosan havaskorlardan tuzilgan bo'lib, professionalizmdan ancha uzoq edi. Shuningdek, sahna bezaklari, dekoratsiyalar ham ancha sodda ko'rinishda bo'lgan.

1935-yilning sentyabr oyida O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti "Termiz shahrida Surxondaryo okrug teatri tashkil etish" to'g'risida qaror qabul qildi. Ushbu teatrning shakllanishida Jarqo'rg'on teatrining havaskor aktyorlari bilan bir qatorda Qayum To'laganov, Xurshid Azimov, Muhammad Shermuhammedov, Omina Fayozova, Kifoyat Muslimova, Manzura Hamidova kabi qator aktyorlar muhim rol o'ynadi. 1935-yil 5-noyabrda Afandixon Ismoilov tomonidan Hamza Hakimzodaning "G'olibiyat" asari ilk bor sahnalashtirilib, teatr jamoasi tomonidan keng xalq ommasiga namoyish etildi³⁹.

XX asrning 30-yillarida teatr repertuarida sinfiy kurashni ifodalaydigan, sovet turmush tarzini targ'ib qiladigan asarlar keng o'rin ola boshladi. Jumladan, K. Yashinning "Ikki kommunist", "Gulsara", "Nomus va muhabbat", N. Chekulayev va A. Ismoilovning "Adolat", "Tog' qizi", "Vatan" kabi sahna asarlari yuqorida qayd qilingan g'oyalar bilan sug'orilgan edi.

1941-yilning mart oyida Surxondaryo viloyati tashkil topgandan so'ng, teatr "Surxondaryo oblast musiqali drama teatri" nomi bilan faoliyatini davom ettirdi. Teatr jamoasi urush yillarida aholining jangovar ruhini ko'tarish, g'alabaga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiluvchi "Chegarachilar", "Vatan" kabi spektakllarni sahnalashtirdilar. 1942-yilda Ukrainaning Xarkov operetta teatrining ko'chib kelishi natijasida ijodiy hamkorlik sababli turli janrdagi spektakllar soni ortdi. "Qo'zibuloq" (Lope de Vega), "Front" (Korneychuk), "O'lim bosqinchilarga" (Komil Yashin), Front (Korneychuk), "Rus masalalari" (K. Simonov) kabi asarlar sahnalashtirilib tomoshabinlarga taqdim etildi. Urush yillaridagi fidokorona mehnati uchun teatr 4-kategoriyadan 1-kategoriyali teatr darajasiga ko'tarildi⁴⁰.

Umuman olganda, sovet davlatining dastlabki yillarida Surxondaryoda ko'plab truppalari va badiiy jamoalarning tashkil etilishi va ular tomonidan sovet mafkurasi bilan sug'orilgan asarlar yaratilgan bo'lsa-da san'at sohasida o'z davrining mashhur sozanda, hofiz va teatr ustalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini qayd qilish maqsadga muvofiq.

³⁸ Абдувоҳидов Ф. Сурхондарё вилояти мусикали драма театри кеча ва бугун. – Тошкент: Ворис-нашриёти МЧЖ, 2017. – Б. 9.

³⁹ Абдувоҳидов Ф. Сурхондарё вилояти мусикали драма театри кеча ва бугун. – Б. 9.

⁴⁰ "Ўзбек театрларида" журнали. – № 10, 1985. – Б. 3.

Dissertatsiyaning **“Surxondaryo viloyati teatr va musiqa san’atidagi o‘zgarishlar va muammolar (1946–1990-yy.)”** deb nomlangan ikkinchi bobida urushdan keyingi yillarda viloyat teatri faoliyatidagi o‘zgarishlar va muammolar hamda 1946–1990-yillarda Surxondaryo viloyatidagi madaniy muassasalar faoliyati tahlil qilinadi.

Sovet hukumatining 1946-yil 16-avgustdagi “Dramatik teatrlar repertuarining ahvoli va uni yaxshilash choralari haqida”gi qarori ko‘pgina musiqali drama teatrlari, jumladan, Surxondaryo viloyat teatri uchun ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi⁴¹. Ushbu qaror asosida teatr repertuaridan “xonlar, podshohlar hayoti va o‘tmishdan hikoya qiluvchi zararli, quruq ko‘ngilochar asarlar” tamg‘asi bilan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Tohir va Zuhra”, “Alpomish” singari spektakllar olib tashlanib⁴², teatrlarda bu asarlar o‘rniga rus va yevropa mualliflari asarlari “Uylanish”, “Sedaya devushka”, “Goluboy Dunay”, “Kommunist” singari sahna asarlari asosiy sahna asarlari maqomiga erishdi⁴³. Bu holat sohaning professanallashuvi natijasi edi.

Shuningdek, bu davrda, respublika teatr sahnalarida kommunistik partiyaning “ijtimoiy buyurtma”si asosida sovet voqeligini tarannum etuvchi asarlar, jumladan, K. Yashinning “Ikki kommunist”, N. Safarovning “Uyg‘onish”, K. Simonovning “Rus masalasi”, G. Muxtorovning “Muhabbat g‘unchasi” namoyish etilgan⁴⁴. O‘z navbatida, bu holat teatr iqtisodining izdan chiqishi va kadrlar qo‘nimsizligini keltirib chiqardi.

Iqtisodiy yetishmovchiliklar tufayli teatrda muammolar to‘planib qoldi, ba’zan rejissyor va aktyorlar yetishmas, iqtisodiy sharoitning og‘irligi sababli teatr jamoasining ko‘pchiligi sahnadan ko‘ra to‘y-tadbirlari bilan ovora bo‘lib qolgan edi. 1948-yilda Surxondaryo viloyat musiqali drama teatri o‘z faoliyatini to‘xtatdi. Aktyorlarning asosiy qismi Buxoro teatriga, bir qismi Qashqadaryo viloyat teatrlariga ishga qabul qilingan bo‘lsa, qolgan qismi xalq teatrlari, ansambllari va badiiy to‘garaklarda o‘z faoliyatlarini davom ettirdi.

O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1957-yil 17-maydagi 288-sonli qarori hamda O‘zbekiston SSR Madaniyat vazirligining 1957-yil 28-maydagi “Termiz shahrida Surxondaryo viloyati drama teatrlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 216-sonli buyrug‘iga asosan Shahrizabz va Jizzax shaharlaridagi kolxoz-sovhoz teatrlari bazasida Surxondaryo viloyati musiqali drama teatri qaytadan tashkil etildi⁴⁵.

1948-yilgacha teatr faoliyatini olib borgan Z. Olimov, O. Olimova, X. Boboxonova, T. Latipova, I. G‘ofurov, N. Ostonov, M. Sarimsoqov va boshqa san’atkorlar qaytib keldilar va ular safiga A. Rahmatov, N. Pardayev, R. Turayeva, O. Aliyeva, S. Lutfullayev kabi Toshkent teatr va rassomchilik institutini tamomlagan yoshlar kelib qo‘shildilar. Yangi jamoa uchun 74 shtat birligi ajratilib, teatrga asbob-uskuna va jihozlar sotib olish uchun 400 ming so‘m mablag‘

⁴¹ O‘zbekiston milliy arxivi, 2087-fond, 1-ro‘yxat, 196-ish, 12-varaq.

⁴² “Ленин байроғи” газетаси, 1972 йил 5 апрель сони.

⁴³ Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 313-fond, 1-ro‘yxat, 36-ish, 21-varaq.

⁴⁴ Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 313-fond, 1-ro‘yxat, 56-ish, 96-97-varaq.

⁴⁵ Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 313-fond, 1-ro‘yxat, 4-ish, 19-varaqlar.

ajratildi⁴⁶. Yangi ish boshlagan teatr 1957–1958-yillarda 13 ta yangi sahna asari sahnalashtirdi. Tomoshabinlarga 1000 ga yaqin spektakl va konsertlar namoyish etilib, 300 mingdan ziyod tomoshabinlar jalb etildi. Ushbu spektakllar asosan urushdan keyingi hayot muammolari, yangi yerlarning o‘zlashtirilishi, shuningdek, axloq-odob masalalariga bag‘ishlangan.

1960-yilda Qashqadaryo viloyatining Surxondaryo viloyati tarkibiga qo‘shilishi munosabati bilan viloyatlar teatrlari ham birlashtirildi. Qashqadaryo viloyat drama teatrining J. Ashurov, T. Murodov, M. Majidov, O. Beganjiev kabi aktyorlari Termiz shahriga kelib, Surxondaryo viloyati musiqali drama teatrida ishni boshladilar⁴⁷. Xuddi shu davrda o‘zbek komediyasining yorqin yulduzi, O‘zbekiston xalq artisti Ergash Karimov va O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Roza Karimovalar o‘z faoliyatini aynan Surxondaryo viloyat teatrida boshlagan edilar⁴⁸. Shu yillari Qashqadaryo va Surxondaryo teatrlari samarali ijod qilganlar. Teatr sahnasida H. G‘ulomning “Farg‘ona hikoyasi”, Hamzaning “Maysaraning ishi”, A. Jamolning “Ko‘z ilg‘amas soyalar”, T. Sobirovning “Qaydasan hayot”, H. Azimovning “Taqdir” pyesalari sahnaga qo‘yilgan⁴⁹. Biroq tadqiq etilayotgan yillarda namoyish etilgan sahna asarlarining uchdan ikki qismini tarixiy revolyutsion ruhdagi va sovet turmush tarzini madh etuvchi asarlar tashkil etgan.

1960-yillarning ikkinchi yarmiga kelib Surxondaryo teatri hayoti va faoliyatida o‘zgarishlar vujudga keldi. Ijodiy jamoa ilk bor mahalliy dramaturglar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Bunday hamkorlik H. Azimovning “Taqdir” spektakli bilan boshlandi. 1967-yili teatr bir qator spektakllar bilan poytaxtda ilk ijodiy safarini uyushtirdi. Toshkentda M. Stadikning “Xavfli uchrashuv”, S. Jamolning “Guli siyoh”, L. Raxmonovning “Baltika deputati”, O‘. Umarbekovning “O‘liklar kechirmaydi”, H. G‘ulomning “Toshbolta oshiq” asarlari namoyish etildi⁵⁰.

Sovet mafkurasining milliy ruhdagi pyesalarning qo‘yilishiga to‘sqinlik qilishi, xalqning milliy mentalitetiga yot asarlarning sahnalashtirilishi, shuningdek, bir qolipdagi asarlarning sahnaga hadeb olib chiqaverishi tufayli aholining teatrlarga qiziqishi kamaydi. Teatr jamoalari oylik va yillik rejalarni teatrning asosan viloyatning qishloq hududlariga gastrol safarlarini ko‘paytirish evaziga bajarib bordi. Misol uchun, Surxondaryo viloyat musiqali drama teatri tomonidan 1958-yilning 11-oyida jami 282 ta tadbir namoyish etilgan bo‘lib, uning 209 tasi⁵¹, 1986-yilda jami tashkillashtirilgan 325 ta tadbirning 140 tasi viloyat hududi bo‘ylab o‘tkazilgan gastrol safarlariga to‘g‘ri kelgan⁵². Teatr faoliyatining yana bir jihati shundaki, teatrdagi konsert faoliyati jamoa ijodiy faoliyatining katta qismini egallagan. Masalan, 1976-yilda o‘tkazilgan jami 364 ta tadbirdan 200 tasini konsert va 164 tasini spektakllar tashkil etgan⁵³.

⁴⁶ Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 313-fond, 1-ro‘yxat, 2-ish, 2-varaq.

⁴⁷ Маннон Уйғур номли Сурхондарё вилоят муסיқали драма театри (буклет). – Термиз, 1995. – Б. 8.

⁴⁸ Турсунов С., Кобулов Э., Пардаев Т., Муртозоев Б. Сурхондарё тарихи кўзгусида. – Тошкент: Шарк, 2001. – Б. 273.

⁴⁹ “Ленин байроғи” газетаси, 1985 йил 16 март.

⁵⁰ “Ўзбекистон маданияти” газетаси, 1967 йил, 15 апрель.

⁵¹ Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 454-fond, 1-ro‘yxat, 266-ish, 158-varaq.

⁵² Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 313-fond, 1-ro‘yxat, 124-ish, 4-varaq.

⁵³ O‘zbekiston milliy arxivi. R-2487-fond, 3-ro‘yxat, 3958-ish, 15-varaq.

Respublikadagi teatr jamoalari 1985-yildan boshlab o'ziga xos taraqqiyot bosqichiga kirdi. Tarix sahifalariga "qayta qurish va oshkoralik" nomi bilan kirgan bu yillarda jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ijtimoiy-siyosiy sohalarida yuzaga kelgan demokratlashuv, fikr va so'z erkinligi, eski mafkura tazyig'idan qutilgan Surxondaryo teatri ijodkorlariga ham badiiy ijodga yangicha qarash, jamiyatdagi muammolarga oshkora munosabat bildirish imkonini yuzaga keltirdi. Bu davrdagi o'ziga xos muhim xususiyatlardan yana biri teatr hayotida uchramagan mahalliy dramaturglar bilan ijodiy hamkorlik vujudga keldi. Teatrning bosh rejissyori M. Ravshanovning harakatlari tufayli teatr o'zining mahalliy dramaturglarini kashf etdi. U. Azimning "Bir qadam yo'l", I. Otaqulovning "Qamashgan ko'zlar", "Qaytar dunyo", N. Hayitqulovning "Yulduz so'ndi", X. Maqsadqulovning "Sadoqatli arvoh", M. Xayrullayevning "Olam seniki", Sh. Boshbekovning "Taqdir eshigi" asarlari dramaturg, rejissyor va aktyorlar ijodiy hamkorligining ilk namunasi sifatida teatr repertuaridan mustahkam o'rin egalladi⁵⁴.

